FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 2, 2024-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss2/a89

UO‘K: 811.512.133

IBORALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (Siddiq Mo‘min she’riyati misolida)

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЙ (На примере поэзии Сиддика Момина)

LINGUISTIC AND POETIC FEATURES OF EXPRESSIONS (In the example of Siddiq Momin's poetry)

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna[1]
[1]Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

Usmonova Ziyodaxon Ilxomjonovna[2]
[2]Oltiariq pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada badiiy matnda ijodkor qarashlari, fikr va tuyg‘ularining frazeologik birliklar yordamida ifodalanishi, lingvopoetik tadqiqotlarda uning tahliliga alohida e’tibor qaratilishi muhim lisoniy dalillar orqali tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu maqolada olim va shoir Siddiq Mo‘min she’riyatida frazeologiyalarni qo‘llash mahoratiga e’tibor qaratilib, uning ijod mahsullaridagi frazeologik birliklar salmog‘i va mazmun ifodasi yoritib berilgan. She’riy ifodalarning jozibasi frazeologik birliklar orqali voqelanishi aniqlangan.

Аннотация

В статье анализируются взгляды творца, выражение мыслей и чувств в художественном тексте с помощью фразеологизмов, особое внимание уделяется его анализу в лингвопоэтических исследованиях через важные лингвистические данные. Также в данной статье акцентируется внимание на мастерстве использования фразеологии в поэзии учёного и поэта Сиддика Момина, а также выделяется вес фразеологизмов и выражение содержания в его творческих произведениях. Определено, что очарование поэтических высказываний реализуется через фразеологизмы.

Abstract

The article analyzes the views of the creator, the expression of thoughts and feelings in the artistic text using phraseological units, and special attention is paid to its analysis in linguopoetic studies through important linguistic evidence. Also, this article focuses on the skill of using phraseology in the poetry of the scientist and poet Siddiq Momin, and the weight of phraseological units and the expression of content in his creative products are highlighted. It has been determined that the charm of poetic expressions is realized through phraseological units

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik chatishma, frazeologik birlashma, barqaror birikma, deformatsiya.*

Ключевые слова: *фразеологизм, фразеологическое сочетание, устойчивое сочетание, деформация*

Key words: *phraseologism, phraseological unit, phraseological transformation, phraseological combination, stable collocation, deformation.*

KIRISH

Ijodkorning til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati uning tilimiz ko‘rki sanalgan frazeologik birliklardan foydalanish darajasiga bog‘liq. Chunki frazeologik birliklar ijtimoiy-madaniy ma’no kasb etgani holda, xalqning milliy mentaliteti, urf-odat va an’analar, insonlar turmush tarzi va madaniyatini ochib beradi. Aynan, iboralar nutqdagi kayfiyat va holat, xarakter-xususiyat, ijtimoiy munosabat, tartib-intizom, voqelik, hamjihatlik, g‘ayrat-shijoat kabi tushunchalarni obrazli tasvirlashda asosiy vosita hisoblanadi. Iboralar qadim zamonlardan buyon insoniyat nutqida mavjud bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun iboralar zamon va makon, ijtimoiy muhit xarakteridan kelib chiqib, o‘zgaruvchan va tuslanuvchan xususiyat kasb etadi. “Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina

kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi.”[1] Xalqchil shoir sanalgan Siddiq Mo‘min ijodida ma’no nozikliklari sayqallangan iboralar orqali ifodalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Frazeologiya termini dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neander tomonidan birinchi marta qo‘llangan. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu terminni ishlatishga majbur bo‘lgan. Rus tilshunosligida frazeologik iboralarni o‘rganish XIX asrdan boshlanadi. O‘zbek tilshunosligida XX asrning 50-yillaridan o‘rganila boshlangan.[2]

Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatdan Sh.Rahmatullayev, B. Yo‘ldoshev, A.Mamatov va boshqalar tomonidan tadqiq etildi. [3] B. Yo‘ldoshev o‘zining “Frazeologik uslubiyat asoslari” o‘quv qo‘llanmasida tilshunoslikning frazeologiya sohasi frazemalarning semantik, struktural-grammatik, xususiyatlari bilan bir qatorda fuksional uslubiy imkoniyatlarini ham o‘rganishini ta’kidlaydi[4] hamda frazeologiya sohasining tilshunoslikdagi nazariy va amaliy jihatlarini yoritib beradi. Asarlari tahlilga tortilgan mashhur adiblarning lingvistik ko‘lamini o‘rganishda ham albatta, ijodkorlar tomonidan qo‘llangan frazeologizmlar turli jihatdan o‘rganilgan. Jumladan, S.A.G‘aniyev “Minhojiddin Mirzo she’riyati lingvopoetikasi”, M.X.Shukurova “ Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida “ayol” konsepti (O. Hojiyeva va E.Siddiqova asarlari misolida), M.T.Yakubova “Erkin Samandar she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari” kabi ilmiy izlanishlarida ham frazeologik tahlillarga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbek tilshunosligi ravnaqiga hissa qo‘shgan A.Rafiyev, B.Yo‘ldoshev, Q.M.Hakimov, A.E.Mamatov, Sh.R.Usmonova, Sh.A.G‘aniyeva [5] kabi olimlar esa tilshunoslikning frazeologiya sohasini turli aspektlarda o‘rganishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ustoz shoir Siddiq Mo‘min she’rlari lingvopoetikasi ustida ish olib borar ekanmiz, uning ijod mahsulida frazeologik qatlamning yetakchi ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Frazeologizmning fikr ta’sirchanligini oshirishdagi ta’sirini ko‘p bor e’tirof etganimiz holda, ijodkor asarlarining ham ta’sir ko‘lami, obrazli ifodasi, she’rlardagi idiostil bevosita frazeologizmlar bilan bog‘liqligiga amin bo‘lamiz. Taniqli shoirlarimizdan Oxunjon Xakimov ustoz shoirning “Mendan mehr kutayotganlar” to‘plamiga yozgan “so‘zboshi”da shunday jumlalarni bitadi: “Siddiq Mo‘min sodda va tabiiy yozadi. Chiranib yozmaydi, she’rlaridagi satrlar quyilib kelayotganga o‘xshaydi. U respublikamiz mustaqilligi haqida yozadimi, sodda va zahmatkash xalqi haqida qalam tebratadimi yoxud odamiylik, insof-diyonat singari mavzularga murojaat qiladimi – o‘ziga ma’qul kelgan yo‘l – xalqona va ta’sirli she’rlar bitish yo‘lidan boradi.” Darhaqiqat, ijodkor misralaridagi joziba, ixchamlik, lo‘nda va ta’sirchan ifodalar aynan, frazeologik birliklar, shoir qo‘llagan iboralar orqali soddagina o‘zbekona lutf, milliy ruhiyat yorqin namoyon bo‘lgan.

Kimgadir *yuraging talpinar, chopar*,
Ko‘rishmoq istaysan bo‘lsa imkoni.
So‘zidan *yuraging halovat topar* –
Demak, yaqin ekan BIOMAYDONI.

Shoir tomonidan to‘rtlikda ifodalangan *yuraging talpinar, chopar; yuraging halovat topar* jumlalari frazeologik chatishma bo‘lib, “…frazeologik chatishmada komponentlar o‘zlarining dastlabki (leksik) ma’nolaridan uzoqlashib, ibora sostavida butunligicha ko‘chma ma’noni ifodalaydi.”[6] *Yuraging talpinar, yuraging chopar yoki yuraging halovat topar* iboralari tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma’nolarini saqlamagani holda, yuraging talpinar (chopar – ma’noni bo‘rttirib ifodalsh uchun stilistik sinonim) –intilmoq, yuraging halovat topar – qoniqish, zavqlanish ma’nolarini ifodalamoqda. Bu iboralar orqali Siddiq Mo‘min o‘zbeklarga xos bo‘lgan insonparvarlik, mehr-muhabbat tuyg‘ularini ko‘rsata olgan.

Ustoz shoir she’rlarida obrazning ifodalanishi, mazmunning to‘kisligida metaforik iboralardan ham mohirona foydalanadi. Metaforik iboralar ham frazeologik birlashma turlaridan biridir. Metaforik iboralar predmetlarni bir-biriga o‘xshatish usuli bilan ifodalanadi. Metaforik iboralar ko‘pincha adabiy tilda qo‘llanadi... Metaforik iboralar grammatik tuzilishi jihatdan ko‘pincha qaratqichli birikma shaklida, ba’zan sifatlovchi birikma tarzida keladi.[7]

Omad qushi uchganda,
Boshingga ish tushganda,

Seni tashvish quchganda

Paydo bo‘lar *eski do‘st*. Ushbu to‘rtlikdagi *omad qushi (*qaratqichli*)* va *eski do‘st* (sifatlovchi) metaforik iboralari *ishning yurishishi* hamda *qadrdonlik* ma’nolarini ifodalab, omad qushining ushishi - kimdandir omadning ketishini nozik jumlalar orqali anglatmoqda.

Ijodkor asarlarining kitobxonni she’rlardagi voqelikka bevosita yetaklashi she’rlarda ifoda etilgan frazeologik sinonimlar bilan ham bog‘liqdir. Frazeologik sinonimlar ham leksik sinonimlar kabi ma’no noziklikla rini farqlashda asosiy o‘rin tutadi. Iboraning so‘zga oxshab ketadigan yana bir tomoni sinonimiyada ko‘rinadi… Sinonimiya semantik hodisa. Sinonimlar o‘zaro biror jihati bilan farqlanib ham turadi. Bunday farqlar frazeologik sinonimlarda, jumladan, anglatgan ma’no qirrasida, zamonaviyligida, nutqiy va stilistik xoslanganligida va boshqa tomonlarda ko‘rinadi.[8]

Boshimga qor qo‘ndi, qoshimga qirov,

Topmadim beta’ma do‘stning mardini. (Ilinj)

Tuni bilan o‘chmadi chiroq

Qo‘ndi ona sochlariga oq (“Ota o‘g‘il”)

Boshimga qor qo‘ndi va *qo‘ndi ona sochlariga oq* iboralari sochning oqarish ma’nosini ifodalasa-da, birinchisi beayov yillar natijasini anglatsa, ikkinchisi farzandidan xavotir olib, tunni bedor o‘tkazgan shikasta ona suratini chizadi.

Barqaror birikmalarning o‘ziga xos xususiyati kishilar nutqida hosil bo‘lib, ma’lum bir qolipga tushushi hamda ko‘p zamonlar shu holatda saqlanib qolishidadir. Bu iboralar nutqqa ixchamlik va joziba berishi bilan birga uning obrazliligini ham ta’minlaydi.

Erkakman deb ***ko‘krakka***

Mushtlaganimiz bekor.

Erkaklar nega loqayd,

Ayol nega mardikor? (So‘z zikrida)

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da nutqimizda barqaror bo‘lgan iboralar izohlangan bo‘lib, *ko‘krag(i)ga urmoq* iborasi quyidagicha izohlangan. K**o‘krag(i)ga urmoq** kim [o‘zining]. ***Chapanichasiga pisanda qilmoq.*** Varianti: **ko‘krakka urmoq** kim. *Gunohim yo‘q, aybsizman deb ko‘krakka urgan bilan ish bitmaydi. S. Ahmad, Hukm* tarzida izohlangan. Shoir ijodidan keltirilgan yuqoridagi to‘rtlikda *ko‘krakka urmoq* iborasidagi *urmoq* so‘zi *mushtlamoq* stilistik sinonimi bilan almashtirlib, iborani deformatsiya qilish orqali undan anglashilayotgan ma’noni yanada bo‘rttirib ko‘rsatishga erishilgan.

Ma’lumki, deformatsiya – ma’lum bir frazeologik iborani shaklan va so‘z miqdori jihatdan o‘zgartirish demakdir. Bunda iboraning shakli o‘zgarsada, mazmun o‘zgarmaydi.[8]

Siddiq Mo‘min ijodining yana bir o‘ziga xos xususiyati okkazionallikdir. Shoir she’rlaridagi okkazional frazeologik birlashmalar ularga yanada hayotiy tus beradi.

Na iloj, keldi-da, *kasalning suri*,

Ko‘chaga chiqarmay turibdi xurib.

Kasalning suri iborasi frzeologik birlashma xarakteriga xosdir. Frazeologik birlashma sostavidagi komponentlar (so‘zlar) o‘z leksik ma’nolarini saqlagan bo‘ladi. Bunday iboradan butunligicha kelib chiqadigan ma’no so‘zlardan kelib chiqadigan to‘g‘ri ma’no bo‘lmay, balki bir butun iboradan hosil bo‘ladigan ko‘chma ma’no hisoblanadi.[9]

Surbetlik aslida insonga xos bo‘lgan salbiy xususiyat bo‘lib, bu so‘z A.Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi. ***Surbet.*** Gap ta’sir qilmaydigan; sur, bezbet. Surbet odam. *Bashirjon yengil nafas olib: “Uf, xayriyat! –dedi va: -Juda isqirt, surbet chol-da! – deya qo‘shib qo‘ydi. N.Aminov, Yolg‘onchi farishtalar*.[10]

Ijodkor *kasalning suri* iborasini qo‘llash orqali 2020-yil yer yuziga ofat olib kelgan kovid kasalligining qanchalar bedavo ekanligini, shifo uchun qilingan choralar besamar bo‘lganligi obrazli ifodalagan. Bu ibora faqat Siddiq Mo‘min tomonidan yaratilgan, shoir nutqiga xos iboradir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shoir Siddiq Mo‘min ijodi frazeologik iboralar bilan boyitilgan, she’rlardagi voqelik, obrazlar qiyofasi frazeologizmlar ta’sirida yanada hayotiy ifoda kasb etadi. Shoir nutqigagina xos bo‘lgan frazeologizmlar esa tilshunoslikning leksik qatlamini boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Пинхасов Я. Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. Ўқув қўлланма. “Ўқитувчи” нашриёти, Тошкент – 1969.
2. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Тошкент -1970. 50-б
3. Йўлдашев Б. Фразеологик услубият асослари. Самарканд – 1998.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. “Ўқитувчи” нашриёти, Тошкент -1978
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти Тошкент
6. Siddiq Mo‘min. Mendan mehr kutayotganlar. “Farg‘ona” nashriyoti – 2007.
7. Siddiq Mo‘min. Biomaydon. “Farg‘ona” nashriyoti – 2022.
8. Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг структурал-функционал хусусиятлари: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Тошкент, 1982;
9. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт.....дисс. автореф. Тошкент, 1993
10. Ҳакимов Қ. М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Тошкент, 1994;
11. Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанл. докт.....дисс. автореф. Тошкент, 2000
12. Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Тошкент, 1998
13. G‘aniyeva Sh. A. Frazeologik birliklarning sintagmatik tahlili. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg‘ona – 2022
14. https://cyberleninka.ru/article/n/o‘zbek-tilining-izohli-lug‘atlarida-iboralarning-grammatik-tavsifi